



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI IJTIMOIIY O‘ZGARISHLAR

Boyto'rayev Sirojiddin Usmonovich

Muhammadov Xosilbek Ergashali o'g'li

DTPI Pedagogika fakulteti

Jismoniy madaniyat talabasi :

Akhmedovdiyorbek7@gmail.com

ANNOTATSIYA:

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi, uning ichki va xalqaro aloqalaridagi ahamiyati, shuningdek, davlat tasis etilishining tarixiy va madaniy konteksti ko‘rib chiqiladi. Mustaqillik, o‘z-o‘zini rivojlantirish va milliy identitetni mustahkamlash jarayonlari ta’kidlanadi. Mustaqil O‘zbekiston nisbatan qisqa muddat ichida erishilgan yutuqlar va muammolar haqida ham ma’lumotlar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik, O‘zbekiston Respublikasi, Tarixiy ahamiyat, Davlat tashkil etilishi, Milliy identitet, Iqtisodiy rivojlanish, Madaniyat

АБСТРАКТНЫЙ:

Рассмотрены становление независимой Республики Узбекистан, ее значение во внутригосударственных и международных отношениях, а также историко-культурный контекст становления государства. Подчеркнуты процессы независимости, саморазвития и укрепления национальной идентичности. Также представлена информация о достижениях и проблемах независимого Узбекистана за сравнительно короткий период времени.

Ключевые слова: Независимость, Республика Узбекистан, Историческое значение, Государственное образование, Национальная идентичность, Экономическое развитие, Культура

ABSTRACT:

The establishment of the independent Republic of Uzbekistan, its importance in domestic and international relations, as well as the historical and cultural context of the establishment of the state are considered. The processes of independence, self-development and strengthening of national identity are emphasized. Information is also provided about the achievements and problems of independent Uzbekistan in a relatively short period of time.

Key words: Independence, Republic of Uzbekistan, Historical significance, State formation, National identity, Economic development, Culture

Kirish





O‘zbekiston Respublikasi 1991 yil 31 avgustda O‘zbekistonda mustaqillik e‘lon qilindi. Bu voqea xalqimiz uchun tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, uning o‘tmishi, kelajagi va taraqqiyoti yangi bosqichga ko‘tarildi. Mustaqil O‘zbekistonning tashkil topishi milliy urf-odatlar va madaniyatni tiklash, iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, xalqaro maydonda erkin va mustaqil davlat sifatida o‘z o‘rnini belgilash jarayonida muhim rol o‘ynadi. Ushbu maqola orqali O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida shaxsiyatini shakllantirish, uning siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishidagi asosiy yo‘nalishlari yoritiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Mustaqilligi: Tarixiy Tavsif

O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida o‘zining yo‘lini 1991 yildan boshlab boshlabdi. Ushbu jarayon avvaldan boshlangan milliy ozodlik harakatlari, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar va xalqaro sharoit bilan bog‘liq. Mustaqillik e‘lon qilinishi bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi yangi iqtisodiy tizimga, demokratik munosabatlarga, hamda milliy qonunchilikni shakllantirish jarayonlariga kirishdi.

Mustaqillikning Tarixiy Ahamiyati

1. Milliy o‘zlik va Identitet: Mustaqillik orqali O‘zbekiston o‘zining tarixiy, madaniy va milliy an‘analarini qayta tikladi, xalqning o‘ziga xosligini yuksaltirdi.

2. Iqtisodiy Rivojlanish: Mustaqil davlat sifatida iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Yangi sanoat, qishloq xo‘jaligi tizimlari va xususiy mulkni rivojlantirishga e‘tibor qaratildi.

3. Xalqaro Aloqalar: O‘zbekiston mustaqillikdan so‘ng bir qator xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘lib, global maydonda o‘z o‘rnini mustahkamladi.

Mustaqillik deklaratsiyasi (1990-yil 20-iyun) — O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining 2-sessiyasida qabul qilingan. U O‘zbekistonning mustaqillikka erishishida muhim qadam bo‘ldi. M.D.da "O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi o‘zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an‘analari, har bir millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini ta‘minlashdan iborat oliy maqsad haqi, O‘zbekistonning kelajagi uchun tarixiy mas‘uliyatni chu-qur his etgan holda xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib, O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mu-staqilligini e‘lon qiladi", deb yozib qo‘yilgandi. Ana shu hujjat asosida O‘zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina bordi va 1991-yil 31 avgustda "O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida" qonun qabul qilindi (yana qarang Mustaqillik).

Bu hujjatning tarixiy ahamiyati eng avvalo, O‘zbekistonning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi, erkin tafakkur asosida yashash, fikrlash, milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayanib ish ko‘rish kabi jihatlar bilan izohlanadi. Mustaqillik deklaratsiyasida O‘zbekistonning hududida asrlar davomida shakllangan davlatchilik, fan-ta‘lim va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tajriba va an‘analari o‘z aksini topgan. Mazkur hujjatning murakkab sharoitlarda qabul qilinishi O‘zbekistonning mustaqillikka erishish sari tashlangan qat‘iy va muhim qadami bo‘ldi.





Mustaqillik deklaratsiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o'z hududida barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir.

2. O'zbekiston SSRning davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo'yilmay turib o'zgartirilishi mumkin emas.

3. O'zbekiston SSRda davlat hokimiyati uning hududiga kiradigan barcha tarkibiy va bo'linmas qismlari ustidan amalga oshiriladi va shu hududda yashaydigan aholiga taalluqlidir.

4. SSSR Oliy Soveti qabul qiladigan qarorlar O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan tasdiqlanganidan keyingina O'zbekiston SSR hududida kuchga ega bo'ladi.

5. O'zbekiston SSR davlat hokimiyati vakolatiga O'zbekiston SSR ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kiradi.

6. O'zbekiston SSR xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini tan oladi va hurmat qiladi.

7. O'zbekiston SSR ittifoqdosh respublikalar va boshqa davlatlar bilan o'zining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa munosabatlarini shartnomalar asosida belgilaydi va amalga oshiradi.

8. O'zbekiston SSR o'zining taraqqiyot yo'lini, o'z nomini belgilaydi va davlat belgilarini (gerb, bayroq, madhiya) o'zi ta'ris etadi.

9. Qoraqalpog'iston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi mustaqilligini Muxtor Respublika Konstitutsiyasi ta'min etadi.

O'zbekiston SSR uning Asosiy Qonuni va O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi asosida Qoraqalpog'iston MSSR manfaatlarini himoya qiladi.

10. O'zbekiston SSRning qonun chiqaruvchi hokimiyati O'zbekiston SSR davlat mustaqilligini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qonunlarni ishlab chiqadi. O'zbekiston SSRning siyosiy va iqtisodiy sistemalari tarkibini va qurilishini belgilaydi.

11. O'zbekiston SSR Oliy Soveti umumxalq muhokamasi asosida demokratik huquqiy davlat tuzishga qaror qilganini bildiradi, O'zbekiston SSRda yashayotgan barcha millat va elatlarning qonuniy siyosiy, iqtisodiy, etnik, madaniy huquqlariga hamda ona tillari rivojlantirilishiga kafillik beradi.

12. Ushbu Deklaratsiya O'zbekiston SSRning yangi Konstitutsiyasini hamda yangi ittifoq shartnomasini ishlab chiqish uchun asosdir.

Foydalanuvchi adabyotlar;





1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Karimov I.A. "O‘zbekistonning Mustaqil Davlat Sifatida Shakllanishi".
3. Raximov R. (ed.) "Mustaqil O‘zbekiston: Yutuqlar va muammolar".
4. Asimov M. "O‘zbekiston tarixining muhim sahifalari".

